



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Qo'qon DPI ILMIY XABARLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ



QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘qon DPI.

ILMIY XABARLAR. 2020-yildan

nashr etiladi. Yilda 4 marta chiqadi.

4 (12)-2023

dekabr

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.

Кокандский ГПИ

издаётся с 2020 года Выходит

4 раз в год

Jahon tilshunosligida fonologik tasnif	
Sh. Xo‘jamberdiyev XX asr boshlari she‘riyatida qofiya va ohangdorlik	455
M. Sharipova Olamning lisoniy manzarasida taqlidiy so‘zlarning ifodalanishi va o‘ziga xos xususiyatlari	461
R.R.Esonov Til, madaniyat va folklorning o‘zaro ta‘sir jihatlari	466
M.A. Жураева Структурные особенности литературно- критических статей серебряного века	469
PEDAGOGIKA	
N.Sh. Erkaboyeva O‘qituvchi faoliyatida kasbiy og‘ishlikning oldini olishning pedagogik shart-sharoitlari	476
I.A. Yakubjonov, F.I. Yakubjonova Umum ta‘lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish hususiyatlari	480
M.A. G‘ofurov, A.M.G‘ofurov Sportga tanlash va sport orientatsiyasining tibbiy muammolari	484
M.A. Azizov Bosqon ulotqirish mashg‘ulotlarida maxsus mashqlarning o‘rni	487
D.A.Mamajonova Milliy musiqa san‘ati rivojida ayol xonandalari gender faoliyatining pedagogik tahlili	490
X.Shermatova Jadidchilik namoyondalarining didaktik qarashlari	498
Г. Р. Муратова Гулнара Ражитовна Возрастные возможности детей школьного возраста	502
Э.С. Жўраев Профессионал таълим тизими раҳбар ва педагог ходимларини узлуксиз малакасини оширишнинг назарий-методологик асослари	505
N.R. Abdullayeva Boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarning kreativ fikrlash imkoniyatlarini oshirish	514
A.Q. Abdullayev Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablar	519
N.I. Suleymanova O‘smirlik davriga xos agressiv xulqning diarezis tahlili va uning korreksiyasini o‘ziga xos imkoniyatlari	524
G.S. Meliboyeva O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni	530
I.A. Yakubjonov, F.I. Yakubjonova Maktab o‘quvchilarida fiziologik rivojlanishida sog‘lom turmush tarzining ahamiyati	533
A.K. Kalimoldaeva, X.A.Ustadjalilova Boshqaruv kadrlarining kasbiy kompetentligi, ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish jihatlari	537
O.R. Jamoldinova, M.S.Ziyoyeva Oliy ta‘limda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	546
M.I. Yakubjonova, N.S. Rasulova Matematikani o‘qitishda o‘rta maktab o‘quvchilarining stoxastik dunyoqarashini shakllantirish	560
С.С. Бабаджонов Глобаллашув шароитида ёшларни манипуляцион ахборотлардан химоя қилишда	564

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni/ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2021dagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari” to‘g‘risida qarori./ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.01.2021-y., 07/21/4963/0064-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi “Xalq ta’limi tizimini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-241-son qarori/ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son
4. PQ- 3775-sonli. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida. 05.06.2018 y. www.lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi/ <https://lex.uz/docs/-3171590>
6. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб/Методик қўлланма. У.И.Иноятлов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012. – 193 бет
7. Axunova G.N. Ta’lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni muammolari: monografiya -T.: 2005.-244b.
8. Лазарев, В. С.Инноватика в школе: учебное пособие для системы высшего педагогического образования и повышения квалификации работников образования / В. С. Лазарев. - Екатеринбург ; Сургут : Гуманитарный ун-т ; 2011. - 159 с. : ил., табл.; 21 см.; ISBN 978-5-7741-0164-1
9. Моисеев, Александр Матвеевич. Основы стратегического управления школой : учебное пособие / А. М. Моисеев, О. М. Моисеева. - Москва : Центр пед. образования, 2008. - 251, [2] с. : ил., табл.; 20 см. - (Образование XXI века); ISBN 978-5-91382-032-7
10. Пулатова, М. Н. Бошланғич синфларда “технология” фанини ўқитиш усул-воситалари // Молодой ученый. — 2019. — № 51 (289). — С. 515-517. — URL: <https://moluch.ru/archive/289/64892/>
11. Тюличева, Л. Д. Особенности реализации принципов непрерывного образования в процессе обучения персонала в организациях / Л. Д. Тюличева // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013 – № 2 – С. 185-187.

**OLIY TA’LIMDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN
FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

Jamoldinova Odinaxon Rasulovna
pedagogika fanlari doktori, professor
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Ziyoyeva Maxfuza Soataliyevna

O‘qituvchi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Toshkent, O‘zbekiston

maxfuzaziyo@gmail.com

Telefon: 998 90 7759005

Annotatsiya. Hozirgi kunda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan aralash, masofaviy, modulli va vebinar texnologiyalari ko‘rinishidagi ta’lim shakllarida pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur maqolaning maqsadi pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida samarali foydalanishga e’tibor qaratish masalalariga bag‘ishlangan. Mavzuning ilmiy rivojlanganlik darajasini ochib beruvchi nazariy va amaliy xarakterdagi tadqiqotlar umumlashtirilib, o‘rganildi. Maqolada o‘rgatuvchi dasturlar, mashq dasturlari, test dasturlari va virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi pedagogik dasturiy vositalarning mazmun-mohiyati, afzalliklari va imkoniyatlari ochib berilgan. Bundan tashqari oliy ta’limda o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda pedagogik dasturiy vositalar asosida yaratilgan elektron resurslardan namunalar keltirilgan. iSpring dasturidan foydalanib yaratilgan nostandart elektron testlar, 3D o‘lchamli kitoblar, hamda Hot Potatoes dasturi orqali tuzilgan elektron krossvordlar shular jumlasidandir. Shuningdek, “SWOT” tahlili metodi orqali ta’lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalarning afzalliklari va kamchiliklarining qiyosiy tahlili keltirilgan. O‘rganish va tahlillardan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga doir taklif va mulohazalar berildi.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim, pedagogik dasturiy vositalar, interfaol doska, virtual borliq, test dasturlari, mashq dasturlari, o‘rgatuvchi dasturlar, iSpring, Hot Potatoes.

Kirish. Jahonning eng rivojlangan mamlakatlarining tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki, ular mustaqillik va taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yishlari bilan asosiy e’tibor va mablag‘larni, birinchi navbatda, ta’lim tizimini yaxshilashga, yoshlarni o‘qitish va tarbiyalashga sarflaganlar. Negaki, har qanday jamiyat kelajagini, birinchi navbatda, aynan ta’lim sifati belgilab beradi. Shu boisdan ham so‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim sifatini yaxshilash uchun ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda 2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nom berilishi ham bejiz emas albatta(4, 4). Prezident Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir” (4,5).

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim sohasida hozirgi davrda amalga oshirilgan islohotlar o‘z aksini topdi va

uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari, jumladan oliy ta’lim tizimi zimmasiga jahon andozalariga mos, iste’molchilar talabiga javob beradigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdek ulkan vazifa yuklatildi. Qonunning 46-moddasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi pedagog xodimlarning majburiyati sifatida belgilandi (1, 20).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonida ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish vazifasi qo‘yildi (2).

Hozirgi kunda kredit-modul tizimi sharoitida o‘quv jarayonini raqamli ta’lim texnologiyalarga asoslangan pedagogik dasturiy vositalar yordamida tashkil etish eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri sanaladi. Oliy ta’lim tizimida o‘qitiladigan o‘quv materiallarini zamonaviy dasturiy vositalar yordamida tayyorlash, undan foydalanib o‘qitishni tashkil etish talabalarning imkoniyatlarini kengaytiradi. Albatta zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari asosida o‘qitishni takomillashtirish, ommalashtirish, elektron ta’lim texnologiyalari bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o‘rganish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ochiq ta’lim tizimini rivojlanishi, o‘quv jarayonining individuallashtirishga e’tibor qaratilishi, o‘quv faoliyati motivatsiyasini o‘zgarishi o‘quv jarayonini tashkil etish talablarini, birinchi navbatda o‘quv jarayonning o‘quv-metodik va axborot ta’minotini kengaytirish, ta’lim oluvchilar bilish faoliyatini faollashtirishni elektron ta’lim nashrlari asosida amalga oshirishni talab etadi (7).

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish maqsad qilingan (3). Ushbu strategiyadagi maqsadni amalga oshirish uchun oliy ta’lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda ayniqsa interaktiv pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan keng foydalanib, o‘quv adabiyotlarning elektron resurslarini yaratish bugungi kun uchun dolzarb masaladir.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta’lim oluvchilarning zamonaviy talablarga mos bilim olishini ta’minlash maqsadida barcha o‘quv muassasalari ta’lim muhitida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa ta’limiy resurslarning elektron nashrlarini yaratishda interfaol pedagogik dasturiy vositalarning o‘rni va ahamiyati kattadir. Ta’lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda qo‘llanilayotgan va qo‘llanilishi zarur bo‘lgan elektron resurslar manbalariga o‘quv materiallari: elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, audio va videodarslar, nazorat topshiriqlari, nostandart elektron testlar, kataloglar, turli xil interaktiv mashqlarni yaratuvchi dasturiy vositalarni misol keltirishimiz mumkin.


Ta’lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish muammosi respublikamizda quyidagi yo‘nalishlarda tadqiq etilgan: oliy ta’lim muassasalarida pedagogik va axborot texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga joriy etish A.Abduqodirov, N.N.Azixzodjayeva, U.Sh.Begimqulov, R.X.Djurayev Sh.S.Sharipov; ta’limda interaktiv va pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha G.S.Ergasheva, Sh.Pozilova; dasturiy vositalar asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha, S.J.Turayev, M.A.Artikova, M.A.Batirov, D.N.Rahmatov; elektron ta’limiy resurslarni yaratish va foydalanish bo‘yicha L.M.Umarov, B.Suropov, L.M.Qaraxonova, B.S.Samandarov, N.O.Raximov, F.H.G‘affarov, S.Q.Tursunov kabi olimlarning ishlarida tadqiq qilingan. Biroq pedagogik dasturiy vositalar va ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llashning didaktik imkoniyatlariga e’tibor qaratiladi.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomotlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi (6, 14). Pedagogik dasturiy vositalar zamonaviy o‘qitish vositasi bo‘lib, ularning tarkibiga o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy ma’lumot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha va yordamchi vositalar kiradi (11, 14).

I.V.Robert pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlarini quyidagicha ko‘rsatib o‘tadi:

- foydalanuvchining individual ish suratini ta’minlash imkoniyati;
- foydalanuvchi va shaxsiy kompyuter orasida darhol teskari aloqani ta’minlash imkoniyati;
- imitatsiyali-modellovchi faoliyatni bajarish imkoniyati;
- ham real, ham ekranda o‘z aksini topgan obyektlar va jarayonlarni boshqarish imkoniyati;
- interaktiv rejimda ishlash imkoniyati;
- o‘rganilayotgan obyektlar, hodisalar va jarayonlarni turli vizuallashtirish vositalaridan foydalanish imkoniyati (8, 35).

Hozirgi kunda pedagogik dasturiy vositalarning quyidagi turlari keng tarqalgan.



1-rasm. Pedagogik dasturiy vositalar

1. O‘rgatuvchi dasturlar – o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida ta’lim oluvchilarning faoliyatini boshqaruvchi amaliy dasturlardir. O‘rgatuvchi dasturlar - yangi materialni talabalar tomonidan o‘rganish, o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular maxsus dasturlar asosida ishlab chiqiladi. Masalan, Autoplay, Adobe Flash, Html, Javascript, Micromedia, Dramveawer, Delphi, VisualBasic, C++ Builder ba boshqa zamonaviy dasturlash tillari shular jumlasiga kiradi (9, 76).

Hozirgi kunda oliy ta’limda raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi Hemis va Moodle LMS tizimlaridan foydalanilmoqda. Masalan ta’limni boshqarish tizimlari Moodle LMS - dunyoning istalgan nuqtasida istalgan qurilmadan foydalanish mumkin bo‘lgan o‘quv materiallari – video darslar, ma’ruzalar, taqdimotlar, kitoblar va ommaviy onlayn ochiq kurslardan iborat tizim.

Moodle LMS tizimida yaratilgan kurslar o‘zida ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha interfaol o‘quv materiallarni, ya’ni, sahifa, taqdimot, so‘rovnoma, chat, forum, topshiriqlar, wiki, virtual maslahatlar ma’lumotlar bazasi, audio va video dars hamda testlarni qamrab olgan. Talabalar bu vizual o‘quv muhitida axborotlar ustida jamoaviy va individual holda ishlashi, Moodle tizimi orqali loyihalashtirilgan interfaol o‘quv sahifalari va virtual maslahatlardan samarali foydalanadilar. Talabalar tomonidan topshiriqlarning bajarilishi o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Bu esa tizimda o‘quv jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida interfaol muloqotni ta’minlaydi (5, 473).

Elektron interfaol doskalar bu – ta’lim berishning zamonaviy vositasi bo‘lib, kompyuter va proyektrdan iborat majmua. Hozirgi kunda elektron interfaol doskalardan uzluksiz ta’limning barcha turlarida keng foydalanib kelinmoqda. Elektron interfaol doskalarning didaktik imkoniyatlari keng bo‘lib, darslarni yanada qiziqarli va ko‘rgazmali tarzda o‘tishiga imkoniyat yaratadi. Mazkur doska yordamida o‘qituvchi interfaol ta’lim resurslarini namoyish etishi, mustaqil ravishda dars ishlanmalarini tayyorlashi va o‘quvchilarni doska bilan ishlashga faol jalb etish orqali darslarni yanada mazmunli va qiziqarli tashkil etishi mumkin. Interfaol doska yordamida bajarilayotgan barcha amallar tegishli fayllarda xotiraga olinishi va o‘tilayotgan darsga tayyor elektron material sifatida o‘quvchilarga tarqatib berilishi mumkin. Interfaol doskalarning dasturiy ta’minoti o‘quvchilarni dars jarayoniga yanada faolroq jalb etadigan va yangi mavzu bo‘yicha bilimlarni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradigan noyob uslubiy materiallarni yaratish imkoniyatini beradi.


2. Test dasturlari - egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi. Hozirgi ta’lim jarayonida **easyQuizzy, iSpring QuizMaker,**

My Test, Ayren kabi universal test dasturlaridan keng foydalaniladi. Ayniqsa iSpring QuizMaker dasturi orqali 11 xil turdagi nostandart testlarni yaratish mumkin. Ushbu test dasturlari bir tanlovli, ko‘p tanlovli, qiyosiy, tartibli, sonli, muvofiqlikni aniqlash kabi imkoniyatlarga ega. Hozirgi kunda o‘quv jarayonida ko‘p hollarda o‘qituvchi tomonidan talabalarga berilayotgan joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari yuqoridagi test dasturlari asosida tashkil etilmoqda. Chunki mazkur dasturlar orqali yaratilgan testlar talabalarning darslarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib, motivatsiyasini kuchaytirish orqali o‘quv jarayoni samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Elektron axborot ta‘lim resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta‘minotlardan biri iSpring dasturidir. Kompyuter yordamida onlayn taqdimotlar va elektron o‘quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlardan biri iSpring Suite dasturlar to‘plamidir. iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o‘quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o‘quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:


1. Power Point- taqdimotlar bazasida o‘quv kurslarini yaratish.
2. Audio va video fayllarni birlashritish.
3. Interaktiv testlar yaratish.
4. Interaktiv katalog yaratish.
5. Masofaviy ta‘lim tizimi uchun ma‘lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturining interfaol didaktik mashqlar yaratish imkoniyati keng bo‘lib, dastur orqali elektron kitob va lug‘at yaratish, nazorat uchun savollar taqdim etish mumkin.




2-rasm. iSpring dasturining imkoniyatlari

Seminar mashg‘uloti uchun test topshiriqlarini iSpring QuizMaker dasturida tuzish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu dasturning imkonioyatlari keng bo‘lib, quyidagi nostandart test turlarini yaratish imkoniyati mavjud:



3-rasm. iSpring dasturida test yaratish oynasi

Quyidagi rasmlar orqali iSpring QuizMaker dasturida 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunni o’rganishga doir yaratilgan ayrim test turlarini ko’rinishi va natijasini ko’rib chiqamiz.



4-rasm. Bir tanlovli test

Вопрос 2 из 5

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 10 из 50

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha qanday darajalarni o'z ichiga oladi? To'g'risini belgilang.

☐ o'rta professional ta'lim;

☐ oliy professional ta'lim

☐ yuqori professional ta'lim

☐ o'rta maxsus professional ta'lim.

☐ boshlang'ich professional ta'lim;

Отправить

Вопрос 2 из 5

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 10 из 50

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha qanday darajalarni o'z ichiga oladi? To'g'risini belgilang.

☒ boshlang'ich professional ta'lim;

☐ yuqori professional ta'lim

☒ o'rta maxsus professional ta'lim.

☒ o'rta professional ta'lim;

☐ oliy professional ta'lim

Правильно

Вы выбрали верный ответ.

Результаты

Назад

Далее

5-rasm. Ko‘p tanlovli test

Вопрос 3 из 5

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 20 из 50

Ta'lim olish shakllarini berilgan ta'rifi bilan juftlashtiring.

Inklyuziv ta'lim	ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari
Dual ta'lim	o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim,
Eksternat tartibidagi ta'lim	ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning
Masofaviy ta'lim	jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim

Отправить

Вопрос 3 из 5

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 30 из 50

Ta'lim olish shakllarini berilgan ta'rifi bilan juftlashtiring.

Masofaviy ta'lim	o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim,
Eksternat tartibidagi ta'lim	ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari
Dual ta'lim	ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning
Inklyuziv ta'lim	jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim

Правильно

Вы выбрали верный ответ.

Продолжить

6-rasm. O‘zaro moslik o‘rnatish: bunda bir necha savollar o‘zaro javoblari bilan birlashtiriladi

Вопрос 4 из 5

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 36 из 50

Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq uzluksiz ta'lim turlarini ketma-ketlikda joylashtiring.

1. oliy ta'lim;
2. kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
3. umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
4. maktabdan tashqari ta'lim.
5. oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
6. professional ta'lim;
7. maktabgacha ta'lim va tarbiya;

Отправить

Вопрос 4 из 5

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 36 из 50

Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq uzluksiz ta'lim turlarini ketma-ketlikda joylashtiring.

1. maktabgacha ta'lim va tarbiya;
2. umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
3. professional ta'lim;
4. oliy ta'lim;
5. oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
6. kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
7. maktabdan tashqari ta'lim.

Результаты

Назад

Далее

7-rasm. Javoblarni tartiblash: savolning ushbu turida javob variantlari o‘zaro tartiblanadi.

Вопрос 5 из 5

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 40 из 50

Matnni to'ldiring.

Davlat _____ ta'lim olishga va _____ ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada _____ olishi va mustaqil ta'lim olish _____ va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli _____ bo'yicha amalga oshiriladi.

ustubiy oilada o'quv dasturlari

mustaqil ta'lim

Отправить

Вопрос 5 из 5

Баллы за вопрос: 10 | Набрано баллов: 40 из 50

Matnni to'ldiring.

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish ustubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Результаты

Назад

Далее

8-rasm. So‘zlar banki: matnning bo‘sh joylariga berilgan so‘zlardan keraklilarini tanlab joylashtiriladi

Ko‘rib turganimizdek, an’anaviy testlarda farqli ravishda mazkur dasturda yaratilgan testlarda bir xillik mavjud emas. Shuningdek, mazkur dasturlar orqali rasm, ovoz va formulalar yordamida testlar tuzish imkoniyatining mavjudligi talabalarning


o‘quv fanini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

3.Mashq dasturlari – interfaol didaktik elektron o‘yinlar va mavzuga doir topqirlik mashqlari. Hozirgi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning o‘quv jarayonida turli xil ta’limiy dasturiy vositalarning imkoniyatidan keng foydalaniladi. Jumladan iSpring, Hot Potatoes dasturi orqali topshiriqlar beriladi. iSpring dasturining interfaol didaktik mashqlar yaratish imkoniyati keng bo‘lib, dastur orqali 3D kitoblar, lug‘at va kataloglar yaratish mumkin. Masalan oliy ta’lim muassasalarida barcha fanlardan mustaqil ta’lim topshiriqlarini qog‘oz shaklidan voz kechib, elektron shakldagi 3D o‘lchamli kitoblarni yaratish orqali bajarsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi.




9-rasm. iSpring dasturi yordamida yaratilgan 3D o‘lchamli kitob

Har qanday fanni o‘rganish uchun esa Hot Potatoes dasturi orqali interfaol didaktik topshiriqlar yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hot Potatoes dasturi JCloze, JQuiz, JCross, JMix, JMatch, The Masher kabi qismlardan iborat bo‘lib, ushbu dastur asosida yaratilgan didaktik elektron topshiriqlar talabanning motivatsion faoliyatini va darsga qiziqishini oshiradi.



10-rasm. Hot Potaes interfeysi

Masalan **Hot Potatoes** dasturining JCross qismida mavzudan kelib chiqib elektron krossvord yaratish mumkin. O‘quv mashg‘ulotlarida ta‘lim oluvchilar tomonidan krossvordlarni bajarish avval o‘zlashtirgan materiallarni takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi.





Eniga:

Bo'yiga:

1. Different, butunni qism, shakl, bosqichlarga bo'lish ma'nosini anglatadigan ta'lim turi
2. Tiklash, to'ldirish, butun ma'nosini beruvchi so'z
3. O'quvchilarni bilim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan dars o'yinli darslar
4. Fahlarning ketma-ketlikda jamlangan yig'indisigadeb aytiladi
5. Kredit-modul tizimi dastlab qaysi universitetda joriy qilingan?
6. O'quvchilar darsdan tashqari ishlarni mavzulari bo'yicha uy vazifalarini bajarish o'qitish
7. O'quvchilarning faolligini ta'minlovchi o'qitish texnologiyalari bu texnologiyasi
8. Pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri

11-rasm. Pedagogik texnologiya fani yuzasidan tuzilgan elektron krossvord

O'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Pedagogika ta'limida mavjud bosma ta'lim vositalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, jadvallar, daftarlar)ning virtual imitatsion modellarini yaratish (elektron darslik, elektron qo'llanma, elektron jadvallar, elektron daftarlar), video va audio materiallarni tinglash, ko'rish orqali fikrlashga, tahlil qilishga yo'naltirish, real bo'lmagan modellashtirilgan elektron daftarlarda interaktiv mashqlarni bajarish jarayoni virtual mavjudlik deb qaralishi mumkin. Mazkur dasturlar orqali virtual lababratoriyalar, virtual sayohatlar tashkil etish mumkin.

Virtual o'qitish jarayoni va unda qo'llaniladigan texnologiyalar ko'plab innovatsion metodlar va usullarni uyg'unlashtira olishi bilan xarakterlidir. Shuning uchun ham ularni to'plash, tasniflash o'qituvchilar faoliyatiga singdirish mexanizmlarini ishlab chiqish o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi.

S.J.Turayevning fikricha pedagogik dasturiy vositalar afzalliklari qatoriga axborotlarning jamlanganligi, ko'rgazmaliligi, ya'ni turli xil taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, animatsiyalardan foydalanganligi, ta'lim tarbiya oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni taqdim etib borish jihatlarini kiritish mumkin. Pedagogik dasturiy vositalar orqali talabada ijodiy fikrlashni, tarbiyaviy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, resurslarni har tomonlama chuqur o'zlashtirishiga imkoniyatning mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega (10,51).

Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga pedagogik elektrtron dasturiy vositalarni keng qo‘llashning pedagogik jihatlarini “SWOT” tahlili metodi orqali ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

Ta’lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning “SWOT” tahlili

“S” (strength) – kuchli tomoni	“W”(Weakness) – kuchsiz tomoni
1. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish orqali talabalarning AKTdan foydalanish kompetentligi oshadi. 2. Elektron ta’lim tizimida pedagogik dasturiy vositalarning qo‘llanilishi ta’lim berish usul va vositalarini boyitadi. 3. Pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan talabalarni shaxsga yo‘naltirilgan rivojlanishini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin. 4. Pedagogik dasturiy vositalarning qo‘llanilishi ta’limni innovatsion yo‘nalishda rivojlantiradi.	1. Pedagogik dasturiy vositalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda kompyuterlarning tanqisligi. 2. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar asosida dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish imkoniyatiga ega yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi. 3. Pedagogik dasturiy vositalar asosida elektron ta’limni rivojlantirish bo‘yicha strategiyani shakllantirishning dolzarbligi. 4. Pedagogik dasturiy vositalar asosida dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish motivatsiyasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning kamligi. 5. Xorijiy davlatlarga nisbatan O‘zbekiston ta’lim tizimida yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini kengroq joriy etishga sarf-xarajatlarni oshirish.
“O” (Opportunity) – imkoniyatlari	T (Threat) – tahdidlar
1. Talabalar va o‘qituvchilarning mobil qurilmalarining o‘zaro aloqasi hisobiga o‘quv jarayonini boshqarish; 2. Kerakli axborotlarni oson qidirish imkoniyati; 3. Professor- o‘qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi; 4. Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarining mavjudligi.	1. Pedagogik dasturiy vositalar asosida dars mashg‘ulotlarini o‘tish uchun didaktik ta’minotning mavjud emasligi. 2. O‘quv jarayonida innovatsion pedagogik dasturiy vositalardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini o‘tish tajribasining yo‘qligi. 3. Zamon talablariga javob bermaydigan pedagogik dasturiy vositalarning yaratilishi elektron ta’lim tizimini sifatini tushib ketishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi fikr-mulohazalar va tahlillardan kelib chiqqan holda oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish va raqamli kompetentligini oshirish uchun pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga asosiy e‘tibor qaratish lozim. Buning uchun:

- dasturiy vositalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etishning zaruriy moddiy-texnik bazasini yaratish;
- rivojlangan davlatlar tajribasi asosida elektron o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv materiallarini yaratish;
- ta‘lim jarayoni uchun pedagogik dasturiy vositalarni loyihalash, ishlab chiqish va qo‘llash;
- yangi ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish va pedagogik texnologiya tipidagi har qanday sohaga oid o‘quv matnlarini tarjima qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan mahoratli pedagog texnologlarni tayyorlash;
- soha mutaxassislari (kompyuter dasturchilari) bilan hamkorlikda professor-o‘qituvchilar ishtirokida ta‘limiy dasturiy vositalar yaratish borasidagi ma‘ruzalar, seminarlar va konferensiyalar o‘tkazish;
- professor-o‘qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari va vositalari hamda ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalana olishlarini ta‘minlash;
- pedagogik dasturiy vositalar va ularning didaktik imkoniyatlariga doir tadqiqot ishlarini ko‘paytirish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kredit-modul tizimi sharoitida o‘quv jarayonini raqamli ta‘lim texnologiyalarga asoslangan pedagogik dasturiy vositalar yordamida tashkil etish eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri sanaladi. Shunday ekan kompyuter dasturchilari hamda pedagoglar va tadqiqotchi olimlarimiz hamkorlikda xalqaro ta‘lim standartlari talablariga javob bera oladigan innovatsion pedagogik dasturiy mahsulotlarni yaratishlari, raqamli ta‘lim texnologiyalari asosidagi ishlarni takomillashtirib, ommalashtirish orqali zamonaviy ta‘lim milliy modelini yaratish lozim. Zero, pedagogik dasturiy vositalarni ta‘lim jarayonida qo‘llash, o‘qituvchining ta‘lim berish imkoniyatlarining oshishiga, boshqa tomondan talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirishiga, amaliy tajribasini yuksalishiga, ilmiy yangilikka qiziqishiga va kasbiy kompetensiyalarini shakllanishiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. T.: 2019, 8 oktabr. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

4. Mirziyoyev Sh.M. “Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi”. 22.12.2022-y. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
5. Kushwaha R. C., Singhal, A., & Swain, S. K. (2019). Learning Pattern Analysis: A Case Study of Moodle Learning Management System. In Recent Trends in Communication, Computing, and Electronics (pp. 471-479). Springer, Singapore https://www.researchgate.net/publication/329484755_Learning_Pattern_Analysis_A_Case_Study_of_Moodle_Learning_Management_System_Select_Proceedings_of_IC3E_2018
6. Pozilova Sh., Pedagogik dasturiy vositalar fanidan ma’ruza mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2019. –172-b.
7. Бурцева Г. Обучить с помощью электронных средств: это возможно! [Электронный документ] / Г. Бурцева (<http://pedsovet.su/publ/26-1-0-739>). 10.01.2010
8. Роберт И.В., Панюкова С.В., Кузнецов А.А., Кравцова А.Ю. Информационные и коммуникационные технологии в образовании. Учебно-методическое пособие. М.: «Дрофа», 2007, 35 с. <https://textarchive.ru/c-1769810-pall.html>
9. Суропов Б.М. Электрон таълим муҳитида ахборот коммуникация технологиялари фанини ўқитишнинг методик таъминотини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент, 2019 –170 б.
10. [Тураев Ж.С. Дастурий воситалар асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш.](#) Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс.- Қарши.-2019. 51 б
11. Эргашева Г.С. Биология таълимида интерактив дастурий воситалардан самарали фойдаланишни такомиллаштириш. Монография. – Тошкент, “Фан ва технология”, 2017.- 218 б. <https://kitobxon.com/uz/kitob/biologiya-talimida-interaktiv-dasturiy-vositalardan-effektiv-foydalanishni-takomillashtirish>

MATEMATIKANI O‘QITISHDA O‘RTA MAKTAB O‘QUVCHILARINING STOXASTIK DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

Yakubjonova Maftunaxon Islomjon qizi

p.f.b.f.d.(PhD) Qo‘qon DPI

Rasulova Nigoraxon Sulton qizi,

Qo‘qon DPI magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktab matematika kursining stoxastik chizig‘ini o‘rganish jarayonida o‘rta maktab o‘quvchilarining aqliy faoliyati tasodifiy tabiatdagi hodisalarni baholash, ularning statistik qonuniyatlarini idrok etish, gipotezalarni ilgari surish va sinab ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish bosqichlari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: stoxastik dunyoqarash, o‘rta maktab, dunyoqarashni shakllantirish bosqichlari, stoxastik vaziyat, stoxastik muammo.